

TURKISTON XIX ASRDA (M.HOLDSWORD) ASARIDA BUXORO AMIRLIGI MADANIY HAYOTI MASALALARI TALQINI

Sirocheva Feruza - BuxDu, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz olimasi Mary Holdsvordning 1756-1920-yillarda Buxoro amirligini boshqargan mang'itlar sulolasi davrida davlatning madaniy hayoti, XIX asr oxiri-XX asr boshlarida amirlikdagi ta'lim tizimi, xalqning savodxonlik darajasi bilan bog'liq qarashlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Amir Haydar, Samarqand, Buxoro, Nasrulloxon, jadidchilik, restavratsiya, toshbosmaxona, "Aqoid", "Sharh", kitobxonlik.

THE STUDY OF THE CULTURAL LIFE OF BUKHARA EMIRATE IN “TURKESTAN IN THE XIX CENTURY” (M.HOLDSWORTH)

Annotation: In this article, English scholar Mary Holdsworth's views on the cultural life of the state during the Mangit dynasty, which ruled the Bukhara Emirate in 1756-1920, the educational system in the Emirate in the late 19th-early 20th centuries, and the level of literacy of the people are scientifically analyzed.

Keywords: Emir Haydar, Samarkand, Bukhara, Nasrullahon, jadidism, restoration, lithography, "Aqoid", "Sharh", literacy.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

O'rta asrlarda G'arb va Sharqni bog'lovchi karvon yo'llari o'tgan, islom madaniyatining o'choqlari bo'lgan, dunyoga mashhur olimlarni voyaga yetkazgan Samarqand va Buxoro shaharlari o'rganilayotgan davrga kelib, ilm-fan, taraqqiyot borasida jahon sivilizatsiyasidan bir muncha ortda qolib ketdi. Ushbu jarayonning sabablari sifatida bir qancha omillarni keltirish mumkin, jumladan, amirlikning Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylanishi, bu davrda O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi o'zaro nizo va kelishmovchiliklar, amir atrofidagi yangilikni qabul qilishni istamaydigan chalasavod amaldorlar, har qanday masalada dinni pesh keltirgan ulamolar sabab amirlik madaniy hayotida regressni kuzatishimiz mumkin. XX asr boshlarida jadidlar ta'sirida islohotlar qilishga harakat qilindi, biroq ular ham diniy ulamolar qarshiligidagi uchrab, tubdan o'zgarishlar qilinishiga yo'l qo'yilmadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Buxoro amirligi madaniy hayotini o'rganishda o'zbek tarixchilari asarlaridan tashqari, yevropalik tadqiqotchi va olimlarning asarlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq ular tomonidan ham yozilgan asarlar ushbu davr madaniy hayotini to'liq ochib berishga imkon bermaydi. Shunday olimlardan biri Mary Holdsvorddir. Uning

“Turkiston XIX asrda” nomli tadqiqotida O’rta Osiyodagi barcha xonliklar hayotiga doir muhim masalalar olib beriladi, jumladan amirlik madaniy hayoti to’g’risida ham rus tarixchilari asarlari asosida o’z xulosalarini keltiradi.

Garchi O’rta Osiyo xonliklari bir muddat madaniy inqirozni boshdan kechirgan bo’lsa-da, XIX asrda yangi bir madaniy tiklanish sodir bo’ldi. Bartoldning yozishicha, Turkiston islom dunyosida, din dunyosida orqada qolib ketgan bo’lsa-da, Buxoro o’zining diniy markaz sifatidagi an’analarni saqlab qola oldi. Mang’it sulolasi hukmdorlari Samarcanddagi madrasalarda ta’mir ishlarini olib borishdi. Buxoro va Samarcand shaharlarda diniy ilmlarni keng ko’lamda o’qitish qayta tiklana boshlagandi. Amir Haydar yirik olim va shu bilan birgalikda taniqli din kishisi ham edi. Adabiyot an’anaviy usulda davom etaverdi, mavzular qayta qayta takrorlanardi. Bartold bu yerdagi kutubxonalar haqida ba’zi ma’lumotlarni keltirib o’tgan: Buxoro va Samarcanddagi kutubxonalar allaqachon amir Nasrulloxon davrida juda yomon ahvolga kelgan, shuning uchun rus olimlari manbalarni izlab topishda va ularni tiklashda katta qiyinchiliklarga uchrayaptilar. Manbalarni qidirish va restavratsiya qilish ishlari 1883-1917-yillarda faoliyat yuritgan “Turkestanskoye vedemosti” gazetasi muharriri N.P.Ostromov va bir necha mahalliy olimlar yordami bilan qizg’inlik bilan olib borilgan.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida jadidchilik harakatlari O’rta Osiyoga ham kirib keldi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi jadidchilik harakatlarining shakllanishida Qozon va Boku ziyolilarining o’rni beqiyosdir. Shuningdek, garchi madaniy-diniy an’analari bir-biriga o’xshamasa-da, Hindiston ham o’z ta’sirini ko’satmasdan qolmadi. Yozuvchi Hindiston ta’sirini embrionga o’xshatgan. Qozondagi 2 oqim: Gaspirinskiy (pan-turkizm) va Ilminskiy (ruslashtirish) tarafдорлари Buxoro amirligida yangicha mazmundagi ta’lim tizimiga asoslangan maktablar tuzishga harakat qilib, diniy konservativstlar va amir qarshiligiga uchragan. Musulmon Hindistonida Sayyid Ahmadxon va Iqbol kabilarning siyosiy va ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan pamfletlarida madaniy an’analarni saqlab qolgan holda jamiyatni g’arblashtirish g’oyasi aks etdi. Bu kabi asarlarning O’rta Osiyo xonliklariga, jumladan Buxoro amirligiga ta’sirini o’lchash mushkuldir. Hindistondan katta hajmda bosma hamda ko’chirilgan (toshbosma) kitob va pamfletlar Buxoro va Qo’qon bozorlariga yetkazildi. Biroq hozirda musulmon Hindistoni va musulmon Turkistoni o’rtasidagi aloqalarning qanchalik yaqin bo’lganini aniqlash mushkul.

Buxoro, Qo’qon, Toshkentdagi ilm ahllari kimlar edi va ular qayerda tahsil olishgan? Deyarli barcha biografiyalardan shu ma’lum bo’ladiki, ularning barchasi Buxoro, Samarcand, Qo’qondagi madrasalarda dastlabki ta’limni olishgan. Ulardan biri Ahmad Kalla (1827-1897). Yozuvchi, olim, satirist bo’lgan, rus tilini yaxshi bilgan, 1885-yilda amirning o’g’li bilan Rossiyaga sayohat qilgan. O’zining bolaligi va o’smirligi haqidagi biografiyasida, o’zi 1889-1893-yillarda qatnagan Buxorodagi

madrasada o'qitiladigan fanlar haqida ma'lumot beradi. Dars jadvalidagi majburiy fanlarga Arab tili, morfologiya va sintaksis, mantiq, ritorika, teologik mazmundagi fanlar, tahorat qoidalari, ro'za, dafn marosimi, Makkaga haj qilish, poklanish, fitr, oldisotdi qonun-qoidalari, qulga egalik qilish va uni ozod qilish, nikoh va taloq masalalari va shariatga doir qonunlarni o'rganish kabilar kirgan. Matematika va adabiyot madrasadan tashqarida o'qilishi mumkin edi. Darsliklar orasida Umar al-Nasafiyning "Aqoid", Abdurahmon Jomiyning "Sharh", mantiq va metafizikani tushuntiruvchi "Taxzib" kitobi va Najmuddin Umar ibn Ali al-Qazviniyning mantiqqa oid qo'lyozma kitobi kabilar bor edi. Dastlabki asosan lingvistikadan iborat ta'lim 3 yil davomida ustozning o'quvchilari tomonidan o'rgatilgan. Qonun, metafizika, mantiq va sharh 5 yildan 10 yilgacha ustozning o'zi tomonidan o'rgatilgan. Ayniying rus tilida savod chiqarishi Mulla Turobning daftaridan bir necha matnlarni ochirib olib, ularni madrasadagi bir do'sti hilan o'rganishidan boshlangan.

Xo'sh, bu davrda xalqning savodlilik darajasi qanday edi va nimalar o'qir edi va mahalliy marifatparvarlar uni qanchalik manbalar bilan ta'minlar edi? Ushbu savollarga javob berishdan oldin, ba'zi bir faktlarni keltiramiz. 1868-1917-yillar oralig'ida Turkistonda bosma nashriyotning vujudga kelishi va mahalliy tilda bir necha manbalarning chop etilishi, kitob savdosining rivoji xalqning kitobga bo'lgan talabini ko'rsatib beradi. 1894-yilda Samarqandda, 1901-yilda Buxoroda tub yerlik shaxslar tomonidan toshbosmaxona ochilgan. 1907-1909-yillar oralig'ida Buxoroning o'zida 45 ta kitob mahalliy tilda chop etilgan.

XX asrning boshlarida bir necha rus sharqshunoslari, jumladan, 1909-yilda Andreev, 1908-yilda A.N.Samoylovich, 1909-yilda A.Kalmikov, 1912-yilda L.Ziminlar tomonidan Turkstondagi kitobxonlik masalasida tadqiqotlar olib borilgan. Ularning tadqiqotlari bizga ushbu hududda qanday kitoblar o'qilgani va sotilgani haqida ma'lumot beradi. Andreev ularni quyidagicha klassifikatsiya qiladi:

1. Arab diniy adabiyotining tarjimalari.
2. Dunyoviy masalalardagi adabiyotlar va bu ham o'z navbatida bir necha kichik guruhlarga bo'linadi:
 - 2.1. Fors tilidan tarjimalar
 - 2.2. Mahalliy mualliflarning asarlari (A.Navoiy, Fuzuliy, Huvaydo, Xoja Ahmad Turkistoniy va boshqalar)
 - 2.3. Tarixiy adabiyotlar.

N.Likoshinining bozorlardagi xorijiy kitoblar savdosi ilan bog'liq tadqiqoti shuni xulosa qiladiki, 1896-yildan boshlab bozorlarda asosan Turkiyadan keltirilgan kitoblar savdosi yetakchilik qilgan. Logofet ham tadqiqotlarining xulosasi sifatida, Samarqandda va Buxoroda Turkiya, Hindiston, Bombey, Kalkutta shaharlarida bosib chqarilgan kitoblar sotilishini aytgan.

Jadidchilik g'oyalarning tarqalishi bilan, Turkistonda maktablarni isloh qilish boshlandi, an'anaviy Qur'on maktablaridan farqli ravishda, bunday maktablar, "yangi usul" maktablari deb nomlangan. Ayniy tomonidan 1911-yilda berilgan ma'lumotlarga ko'ra, bunday maktablar soni Buxoroda 5 ta, Samarqandda 2 ta, Toshkentda 12 ta edi, va bu shaharlar islohotlar markazi edi. Biroq bu maktablar uzoqqa bormadi, amir va an'analar tarafidori bo'lgan din vakillari qarshiligidagi uchradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Holdsworth M. Turkestan in the Nineteenth Century. – O.: Central Asian Research Centre in Association with St. Antony's College. 1959
2. Nasilloyev S.Sh, Sirocheva F.Z (2021). E.K.Meyendorfning "Orenburgdan Buxoroga sayohat" asarida Buxoro tarixiy-me'moriy obidalarining tadqiq etilishi masalalari. International journal of philosophical studies and social sciences, 1(5), 24-30.
3. Sirocheva F. Buxoro amirligi kiyinish madaniyati O.Olufsen tadqiqotlarida. "Tafakkur va talqin" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
4. Hopkirk Peter. The Great Game: On Secret Service in High Asia. London. John Murray. 2006.
5. S.Sh. Nasilloyev, F.Z. Sirocheva A. Vamberining "O'rta Osiyoga sayohat" asarida Buxoro va Samarqand shahri tarixiy-me'moriy binolari hamda ziyoratgohlarining tadqiq etilishi. // Journal of academic research in educational sciences. 2021. Vol.2(11)